

Viloyat haqida umumiy ma'lumot

Surxondaryo viloyati

Surxondaryo viloyati — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1941 yilning 6 martida tashkil etilgan (1925 yilning 29 iyunidan Surxondaryo okruti bo'lgan). 1960 yil 25 yanvarda Qashqadaryo viloyati bilan qo'shilgan. 1964 yil fevralda qaytadan tashkil qilindi.

Respublikaning janubi-sharqida, Surxon-Sherobod vodiysida joylashgan. Janubdan Amudaryo bo'ylab Afg'oniston, shimol, shimoli-sharq va sharqdan Tojikiston, janubi-g'arbdan Turkmaniston, shimoli-g'arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Mayd. 20,1 ming km². Aholisi 1874,7 ming kishi (2004). Markazi — Termiz sh.

Tabiati. Surxondaryo viloyati reliefi tog' va tekisliklardan iborat, shimoldan janubga qiyalanib va kengayib boradi. Tog'lardan oqib tushadigan ko'pdan-ko'p daryo va soylar dara hosil qilgan.

Surxondaryo va Sheroboddaryo oqib o'tadigan tekislik shimol, g'arb va sharqdan baland Hisor tizmasi (eng baland joyi 4643 m) va uning tarmoqlari (Boysuntog', Ko'hitangtog', Bobotog') bilan o'ralgan. Tog'lar, asosan, yuqori paleozoy va mezozoy davrlari jinslaridan, tekislik qismi esa to'rtlamchi davr yotqiziqlardan tarkib topgan. Tog'lar bilan tekislik orasida adir va tog' oldi zonasi joylashgan. Tog'lar shimol sovuq havo oqimlarini to'sib turishi natijasida subtropik o'simliklar o'stirish uchun qulay iqlim sharoiti vujudga kelgan.

Tog' zonasi va adirlarda, asosan, g'alla yetishtiriladi, chorva uchun yozgi yaylov. Mutlaq bal. 300—500 m. bo'lgan Surxon-Sherobod tekisligida paxta ekiladi, bog' tokzorlar barpo qilingan. Janubiy qismi keng qumliklar bilan qoplangan.

Foydali qazilmalardan neft va gaz (Xovdog', Kakaydi, Lalmikor, Amudaryo bo'yi tekisliklari), toshko'mir (Sharg'un, Hisor, Boysun, Ko'hitang tog'larining etaklari), polimetall (Sangardak), osh tuzi (Xo'jaikon) konlari bor. Gips, granit, argillit kabi qurilish materiallari, mineral suvli buloq ko'p.

Tekislik qismining iqlimi quruq subtropik. Yozi jazirama issiq va uzoq, qishi iliq va qisqa. Yillik o'rtacha harorat 16°—18°. Iyulning o'rtacha harorat 28°. —32°, yanvarniki 2,8°—3,6°. O'zbekistonda eng issiq harorat ham shu viloyat hududida kuzatilgan (1914 y. 21 iyunda Termizda 49,5° issiq bo'lgan). Ba'zi yillari qish ancha sovuq (—20° va hatto undan ham past). Yil davomida bulutsiz kunlarning ko'p bo'lishi va quyosh nurining tik tushishi effektiv tralar yig'indisi yuqori bo'lishiga olib keladi. 10° dan yuqori

haroratli kunlar tekislik qismida 290 — 320 kun davom etadi. Bu esa viloyatda eng issiqsevar ekinlar (shakarqamish, ingichka tolali paxta) va mevalar yetishtirishga imkon beradi.

Viloyat tog'lar orasidagi berk botikda joylashganidan bu yerda yog'in kam. Viloyatning jan. tekisliklarida yiliga 130 — 140 mm, Hisor tog'lari yon bag'irlarida 445—625 mm yog'in yog'adi. Yog'inning asosiy qismi qish va bahorda tushadi. G'arbiy, janubi-g'arbiy va shimoli-sharqiy shamollar ko'p esadi. Viloyatning janubi sharqiy qismida esadigan Afg'on shamoli iqlimga salbiy ta'sir etadi.

Viloyatning asosiy suv arteriyalari — Surxondaryo va Sherobodaryo hamda ularning Qoratog'daryo, To'polondaryo, Sangardakdaryo, Xo'jaipok kabi irmoqlari. Tog' qor va muzliklaridan, yog'indan to'yinadigan bu daryolar viloyat hududining shimoliy qismi, tog' va tog' oldi zonalarinigina suv bilan ta'minlay oladi, janubdagi keng tekisliklarda doimiy suv tanqisligi kuzatiladi. Yer osti (artezian) suvlaridan tobora keng foydalanilmoqda. 1957—58 yillarda Uchqizil, 1959 — 62 yillarda Janubiy Surxon va Degrez suv omborlari, Jarqo'rg'on gidrotuguni qurildi. Hazorbog', Dayto'lak, Qumqo'rg'on, Zang kanallari, Sherobod, AmuZang mashina sug'orish kanallari barpo etildi.

Tuprog'i tekisliklarda taqirsimon va sho'rxok och bo'z tuproqlar, tog' yon bag'rida turli xil bo'z tuproqlar. O'simliklar dunyosi ham tabiiy sharoiti bilan bog'liq. Janubdagi ekin ekilmaydigan qumloq joylarda qandim, oq saksovul, cherkez, taroqbosh, yaltirbosh, yantoq, butasimonlar; daryo bo'ylarida yulg'un, jiyda, turang'il, terak, savag'ich, qiyoq, qamish; adir va tog'larning pastki yon bag'irlarida bir yillik efemerlar (lolaqizg'aldoq, пыхатак); 1200—2500 m balandliklarida efemerlar bilan birga archa, pista, qayin, tol, yongoq, olma, zarang o'rmonlari uchraydi. Bobotog' tizmasi yon bag'irlarida respublikaning eng yirik tabiiy pistazorlari joylashgan. Baland tog' zonasi subal'p va al'p o'tloqlari bilan band.

Hayvonot dunyosi ancha boy: bo'ri, tulki, chiyabo'ri, ayiq, jayran, qobon, yovvoyi echki, arxar, to'qaylarda bug'u, to'qay mushugi, kalamush, qo'shoyoq, yumronqoziq, ko'rsichqon, gekkon kaltakesagi, ko'zoynakli ilon (kobra), o'q ilon, jayra, qushlardan ular (tog' kurkasi), qirg'ovul, mayna, qaldirg'och, g'oz, o'rdak, so'fito'rg'ay, chil, kaklik bor. Daryo va suv omborlarida har xil baliq ko'p.

Surxondaryo viloyatida Surxon davlat qo'riqxonasi joylashgan.

Viloyatda 2 million 681 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Shahar aholisi 971,4 ming kishi, qishloq aholisi 1709,6 ming kishi (2021yilning 1 yanvar holatiga). Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, turkman, qozoq va boshqa millat vakillaridan iborat.